

**The content and function of landscape in the text of Shukur  
Kholmirezayev's stories included in the collection "Bandi burgut"**

2nd year student of Termez State University

**Choriyev Nurbek Jumanazar o'glu**

**Annotation:** This article explores Shukur Kholmirezayev and his stories. Also the theoretical views on the image of man and the surrounding nature in the Bandi Eagle collection are revealed. The primary objective of this research is to convey the essence of this masterpiece to readers and to make, even if modest, a contribution to the field of literary studies.

**Keywords:** landscape, story, "Bandi burgut", time and space, chronotope, description of nature.

**Shukur Xolmirzayevning "Bandi burgut" to'plamiga kirgan hikoyalari  
matnida peyzajning mazmuni va vazifasi**

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

**Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev va uning hikoyalari tadqiq etilgan. Shuningdek, "Bandi burgut" to'plamidagi inson va uning atrofidagi tabiat tasviri haqidagi nazariy qarashlar ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o'quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo'lsa-da hissa qo'shishdir.

**Kalit so'zlar:** peyzaj, hikoya, "Bandi burgut", vaqt va makon, xronotop, tabiat tasviri.

Shukur Xolmirzayev — o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, inson qalbini nozik his qilgan, hayotning oddiy manzaralaridan chuqur ma'no topa olgan

iste'dodli yozuvchidir. Uning asarlarida inson va tabiat, mehr va sadoqat, or-nomus va vijdon kabi muqaddas tuyg'ular o'ziga xos badiiy joziba bilan tasvirlanadi. Shukur Xolmirzayev ijodi o'zining samimiyligi, hayotiyliigi va tabiiyligi bilan kitobxon qalbiga tez yo'l topadi. Yozuvchi qahramonlari oddiy odamlar — dehqon, cho'pon, qishloq kishilari bo'lsa-da, ularning qalbida katta dunyo, katta orzu va katta iztiroblar yashaydi. Adib ana shu insoniy kechinmalarni sodda, ammo ta'sirchan uslubda ifodalaydi. Uning hikoya va qissalarida tabiat manzaralari ham go'yo tirikdek tasvirlanib, inson ruhiyati bilan uyg'un holda beriladi.

Yozuvchi o'z asarlarida milliy qadriyatlar, insoniylik va vijdon masalalarini yuksak darajada yoritadi. U kitobxonni hayot haqida o'ylashga, insoniylikning asl mohiyatini anglashga chorlaydi. Shukur Xolmirzayev ijodi orqali o'zbek qishlog'ining ruhiy olami, xalqning orzu-armonlari va hayot falsafasi yorqin aks etadi. Bugun ham Shukur Xolmirzayev asarlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning har bir satrida inson qalbining nozik tovlanishlari, hayotning achchiq va shirin haqiqatlari mujassam. Shu bois yozuvchining boy ijodiy merosi o'zbek adabiyotining bebaho xazinasini sifatida qadrlanadi.

An'anaga ko'ra, tabiatni tasvirlashning asosiy funksiyalaridan biri xronotopik funksiyadir (asardagi voqealar vaqti va joyini tushuntirish). Badiiy matnning fazoviy-vaqtincha tashkil etilishi bilan bog'liq holda tabiatning tavsiflarini ko'rib chiqish bugungi kunda juda samarali tadqiqot sohasidir. Asarning "makon-zamon"ini o'rganishning o'zi ham ma'lum bir adabiy an'anaga ega. M .M. Baxtin o'zining "Romandagi vaqt va xronotop shakllari" asarida birinchi marta xronotop tushunchasini qo'llaydi, ya'ni: "vaqt-makon" va dunyoning badiiy obrazida "fazoviy va vaqt belgilarining mazmunli va konkret yaxlitlikda uyg'unlashuvi borligini ko'rsatadi. Fazoda zamon belgilari namoyon bo'ladi, makon esa vaqt bilan idrok qilinadi va

o‘lchanadi”.<sup>1</sup> M.M.Baxtinning mantiqli fikriga ko‘ra “xronotop adabiy asarning voqelikka munosabatidagi badiiy birligini belgilaydi”.<sup>2</sup>

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida vaqt va makon. Shukur Xolmirzayev qarashlari tabiat olami bilan bog‘liqlikda bo‘lib, inson ruhiyati tasvirlari bilan faslni parallel ravishda aks ettiradi (ba‘zan bir hikoyada harakatning rivojlanishi bilan fasllar bir-birini almashtiradi) va hududning peyzaji ( O‘zbekiston tabiati: tog‘ va tog‘ oldi hududlari; qir-adirlar; dasht va dala kengliklari; Boysun tabiati). Xronotopning vazifasi rivoyatda asosan dinamik rivoyatga xos bo‘lgan peyzaj shtrixlari yoki qo‘shimchalari<sup>3</sup> deb ataladi. Tabiatning bunday tasvirlarida tabiiy rasmning bir yoki bir nechta elementlari tasvirlangan bo‘lib, ular umuman harakatning joyi va vaqti haqida tasavvur beradi: “Mana, oxirgi tepalikka chiqib keldik. Past qop-qora archazor. Yiroqda o‘t miltillaydi. Itlarning cho‘ziq-cho‘ziq hurishlari eshitiladi.”<sup>4</sup>(yozuvchi uchta birikma bilan: “qop-qora archazor”, “yiroqda o‘t miltillaydi” , “cho‘ziq-cho‘ziq hurishlari” vaqtini ifodalagan, bitta birikma bilan joyini “oxirgi tepalikka”) , “Ular belgili manzil – Tomoshakamar tepasiga yetib, mashinadan tushganda, kunchiqar ufqi sarg‘aya boshlagan, pastlikdagi dara sohillarini qoplagan oqish tuman muyilishlarga, pastqam joylarga surilib borar, shimoldan, tog‘ ostidagi archazordan sovuq shamol esar edi”. Voqealar sodir bo‘lgan joy va vaqtini bildirishga xizmat qiladigan ushbu peyzaj tavsiflarida yozuvchi tabiiy rasmning rangi va yorug‘ligidagi o‘zgarishlarni tavsiflovchi shunday nozik tafsilotlar(sarg‘aya boshlagan, oqish tuman, sovuq shamol) bilan ifodalagan.

<sup>1</sup>Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. - М.. 1986.

<sup>2</sup>Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. - М.. 1986.

<sup>3</sup>В данном случае мы используем терминологию и определение РС Луценко см Луценко РС Коннеги «пейзаж» в структуре англоязычного прозаического текста Автореферат дисс канд филол наук - Иваново 2007 - Б.11-12

<sup>4</sup> Танланган асарлар:Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 8.

Qoidaga ko‘ra, peyzaj chizmalari atrof-muhit holatini minimal xarakteristikaga ega bo‘lgan holda tasvirlaydi, lekin har qanday aniq tasvirlangan matnli vaziyat uchun muhim bo‘lgan tabiatning o‘ziga xos tasviri emas, balki mavhum umumlashtirilgan. Bunday peyzajlar odatda ob-havo, tabiiy vaqt yoki peyzajga oid bir nechta xarakterli tafsilotlarni tasvirlaydi, ba‘zan esa tabiiy dunyo holatini hissiy baholashni o‘z ichiga oladi. “Bandi Burgut”, “Ikki ko‘rgan bilish”, “Sirli militsioner” va boshqa hikoyalaridagi peyzaj tasvirlari bunga misol bo‘la oladi: “Hovlimiz Ko‘hitang tog‘ining archazor yonbag‘rida bo‘lib, tevaragi pastak devor bilan o‘ralgandi. Lekin, ayvondan turib qarasangiz, devorlar ko‘rinmaydi: daraxtlar shunaqa qalin. Bu daraxtlar orasida bir tup archa ham bor edi.”; “Bir kuni — o‘shanda qish edi — bozor oqshomi dars tayyorlab bo‘lib, deraza yonida turgandim. Tashqarida shitirlab qipikday quruq qor yog‘ar, ayvon ustunidagi chiroq yorug‘ida yiltillab, aylanib-aylanib tushardi...” . Ko‘pincha xronotopik “peyzaj teginishlari” o‘quvchini darhol hikoyaga kiritib, ma‘lum bir voqeaning o‘ziga xos ekspozitsiyasini taqdim etadi, masalan, “O‘shanda bir qarich jujuq edim. Teng-to‘shlar bilan yozda tuproq changitib, qishda qorbo‘ron o‘ynab bahor kezlarida ham o‘ziga xos ermaklar topib yurgan beg‘am, baxtiyor chog‘larim edi.

Biz, ayniqsa, ko‘klam kezlarida to‘rt-beshta bo‘lvolib, poliz paykallarida izg‘ib yurardik. O‘tgan yildan qolib ketgan sabzi bormi, lavlagi, kartoshka bormi kavlab, olib qishloqning chetidagi bir g‘arib dala shiyponiga borib, o‘t yoqib, uning qo‘riga topgan-tutganimizni ko‘mib pishirib yer edik. Qo‘llarimiz, og‘zi-burnimiz qorayib, bir-birimizdan kulib, maza qilib o‘tirardik.”<sup>5</sup>, “Bug‘doy poyada sariq tikanlar mo‘l, ular ochilib turgan allaqanday gullarga o‘xshaydi. Zarg‘aldoqlar «chulu-lu» deb tikan shoxlariga bemalol qo‘nadi, sovuqda junjikkandek hurpayib oladi. Ehtimol, tikanlar

<sup>5</sup> Танланган асарлар:Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 640.

ostida inlari bordir, movut parchasi, xas-cho‘pdan yasalgan. Hozir kuz boshlanib qolgan...

Kun choshgoh. Adir ustida quyosh gardishi oqarinqirab nur sochyapti. Bug‘doypoya yoqalab o‘tgan tuproq yo‘lda oq yolini yelpitib, bo‘z ot yo‘rg‘alab kelyapti. Egardagi barvasta yigit qizargan ko‘zlarini horg‘inlik bilan ochib, uyoq-buyoqqa qaraydi. Egnida oq, kalta po‘stin. Boshida shapka, uzangiga tiralgan oyoqlarida kirza etik. O‘ng qo‘lidagi qamchi egar yonida osilib turibdi. Chap qo‘li bilan yuganni siltab-siltab qo‘yadi. U yonbag‘irdan ko‘tarilib, g‘uj bo‘lib o‘sgan tikanlar orasida allanechuk g‘ujanak bo‘lib o‘tirgan kishini ko‘rdi. Kishi ham otliqni ko‘rdi-yu, irg‘ib turdi. Afti dard va alamdan tirishdi. Shitob bilan yurib, yo‘lga chikdi.”<sup>6</sup>

Hikoyaning tabiat tasviri bilan boshlanishi – o‘zbek adabiyotidagi mutlaqo an’anaviy(biz bilgan o‘sha o‘zbekning buyuk ijodkorlari: Cho‘lpon, Oybek, Abdulla Qahhor hikoyalarida ham uchratishimiz mumkin) harakat. Shukur Xolmirzayev badiiy tizimida tabiat tasvirlarining hajmi va kontseptual yuki jihatidan fundamental ahamiyati tufayli alohida ahamiyatga ega.

Yozuvchining ko‘plab hikoyalarining dastlabki matnlari tabiatning (“ko‘ngil”, “Notanish odam”, “oy yorug‘ida” va boshqa ko‘plab hikoyalari) tasviri bilan boshlanadi. Bunga misol qilib biz dastlab yozuvchining aynan tabiat haqidagi, insonning tabiat bilan mangu hamroh qadriyatlari haqidagi hikoyasi va ayni shu nomdagi to‘plami - “Bandi burgut”ga to‘xtalmoqchimiz. Yozuvchi sarlavhaga to‘liq mos ravishda, hikoya burgutning bandi bo‘lishidan to oxirigacha, uning “ozod” bo‘lishigacha bo‘lgan davrni tasvirlaydi. Bola tilidan hikoya qilinga ushbu hikoya voqealari bahor faslida ro‘y beradi va shuning uchun birinchi satrlardan oq asarning asosiy motivlaridan biri hikoya

---

<sup>6</sup> Танланган асарлар:Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 174.

matosiga kirib boradi – bahor: ko’klam motivi. Hikoya quyidagi ibora bilan ochiladi: “O’shanda bir qarich jujuq edim. Teng-to’shlar bilan yozda tuproq changitib, qishda qorbo‘ron o‘ynab bahor kezlarida ham o‘ziga xos ermaklar topib yurgan beg‘am, baxtiyor chog‘larim edi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi hikoyalaridagi tabiat, bir tomondan, ma’lum bir o‘z-o‘zini ta’minlovchi xususiyatga ega, u insondan mustaqil holda mavjuddek tuyiladi. Boshqa tomondan, hatto xronotopik peyzaj parchalarida ham bevosita yoki bilvosita xarakter dunyosi, uning ongi, tabiat olami sirlari, uning qonuniyatlari va ritmlarini inson hayoti bilan bog‘lash istagi namoyon bo‘ladi. Bundan ham aniqroq aytganda, insonning ichki holati, ma’naviy dunyosi bevosita qahramon rivoyatchi idrokida berilgan psixologik manzaralarda namoyon bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayev nasridagi peyzaj birliklarining xilma-xilligi ularning matndagi yuqori semantik yukidan dalolat beradi: bu asarda makon-vaqt uzluksizligini yaratish va insonning tashqi dunyo bilan ma’naviy aloqasini aks ettirish va uni yaratish vositasidir.

#### **Foydalanilgan asarlar ro‘yxati:**

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. - М.. 1986.
2. В данном случае мы используем терминологию и определение РС Луценко см Луценко РС Коннеги «пейзаж» в структуре англоязычного прозаического текста Автореферат дисс канд филол наук - Иваново 2007 - Б.11-12
3. Танланган асарлар:Ҳикоялар. –Т.: “Шарк”2020. –. Б. 8.